



## **IBRAT - HAQIQIY IBRAT MAK TABI**

**Muallif:** Abdullaxo'jayev Adxamxo'ja Isaxo'ja o'g'li<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Tadqiqotchi, Qo'qon universiteti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14542876>

### **ANNOTATSIYA**

Is'hoqxon To'ra Ibratning ta'lism sohasidagi faoliyati mакtab islohotlariga, ilm-fan va ma'naviyatni uyg'unlashtirishga qaratilgan. U o'quvchilarga ilm, axloq va madaniyatni o'rgatib, milliy kadrlar tayyorlashga hissa qoshgan. Ta'limda yangiliklar tatbiq etish va pedagogik usullarni rivojlantirishga intilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim islohoti, ilm-fan va ma'naviyat, pedagogik usullar, milliy kadrlar tayyorlash.

O'rta Osiyo jadidlarining otasi Behbudiy: "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i-maktabdir"<sup>1</sup> –deydi. Maktabning islohi tabiiyki, jadid ma'rifatparvari Ibrat faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Is'hoqxon To'ra Ibrat jahon ilmi va madaniyati mahsuli bo'lgan har qanday ilg'or yangilikni qabul qilibgina qolmay, ularni millat hayotiga faol tatbiq etishga intilganki, uning yaratuvchilik va bunyodkorlik ishlari tahsinga sazovordir. Chor hukumati mustamlakachilik siyosatining avjiga chiqishi mahalliy aholi o'rtasida rus tiliga bo'lgan ehtiyojni oshirgan. Rus-tuzem, "usuli saviyya" maktablari o'lkanning katta shaharlarida, hattoki qishloqlarda ham ochilgan. Bu maktablarda dunyoviy fanlar, ona tili bilan bir qatorda rus tili ham o'qitilgan. Zamon talablarini yaxshi tushungan ilg'or fikrli kishilar farzandlarini yangi maktablarga yuborganlar. 1907 yilda "Turkiston vilovatining gazeti"da eski maktab tarafdori toshkentlik maktabdor Mulla Hasanxo'ja eshon bilan Is'hoqxon To'ra o'rtasida munozara bo'lgan. Mulla Hasanxo'ja eshon eski maktablardagi o'qitish uslubini yoqlab, yengil isloh qilishni taklif etgan bo'lsa, Is'hoqxon To'ra eski maktablarni tubdan isloh qilish, uning ornida zamon talablariga javob beradigan maktablar ochish tarafdori bo'lgan. Is'hoqxon To'ra "Eski maktablar xususida" nomli maqolasida Mulla Hasanxo'ja kabi maktabdorlardan ranjib "Muallim bechora aziz farzandlarimizni kaltak, qamchi yo'q bahonasi-la, besh-o'n sanalar osmonga qaratib, "Alif bezavar, alif bazavar", deb shovqin qildirib qildirib, bir harf ham o'quv yozuv bildirmayinchcha umrlarini barbod qilib yotmoqqa taqviyatgina bo'ladir" deydi va "bolalarni eski maktablar va jamoalarg'a taqsim qilib, kelish-ketish, kaltak va qamchi masalalarin isloh qilmoq kerak"ligi, lekin o'qitiladigan kitobu domialar bor ekan. bu masala ming marta isloh etilsa ham behuda ekani, eski maktablar yangi usul o'qituvchilari bilan ta'minlansagina, isloh qilinishini yoqlab, "... bolalarni eski maktablar ila jamoalarg'a taqsim qilib, kelish-ketish, kaltak ila qamchi masalalarini isloh qilmoqda, albatta, lozimduur. Lekin o'qulajak kitoblar-mazkur eski hashorot uyalari bo'lg'ondin bu

<sup>1</sup> <https://tma.uz/2019/08/24/dunyo-imoratlari-ichida-eng-ulug'i-maktabdir/>

masalalar ming martabalar isloh etilsa-da bekor, behudadur. Biz ko'zumiz ila tajriba qilib, bul o'qitishga tamom ixlos qildik"<sup>2</sup> deb ta'kidlagan.

Is'hoqxon To'ra 1908 yil 2 martda Sohibqiron Amir Temur qurdirgan me'moriy obidalarni ta'mirlashga bag'ishlangan maqola yozib, moddiy-madaniy boyliklarni saqlab qolish uchun amalga oshiriladigan ishlarni sanab o'tgan. Jumladan, Amir Temur vaqf qilgan o'n ikki ariqning kimda ekanini topish,himmatli ma'rifatparvarlardan mta'mirga mablag' ajratishga hukumatdan ijozat olish, vaqflarni to'plab, hukumatdan ta'mirlash uchun qaror chiqartirish, ta'mirlash uchun joylarda xayriya sandiqlari yoki bankda hukumat muhrlagan ro'yxat asosida hidoya to'planib, hidoya daftari tutish, "sulton avlodlari bilan maslahatlashib, keyin hukumatdan hidoya yig'ish haqida. tartiblik daftar tutish uchun ruxsat olish"<sup>3</sup> kabilardir.Umrini ma'rifatga bag'ishlangan Is'hoqxon To'ra ning mam- lakanining tarixiy me'moriy obidalariga munosabati uning Vatanning bir qarich tuprog'i uchun ham jonini jabborga beradigan chinakam fidoyi inson ekanini ko'rsatadi.

Is'hoqxon To'ra ning 1910 yilda saylovlar munosabati bilan yozilgan "Po povodu viborov dolinostnis tuzemsev v Namangane" nomli maqolasida tuzumning illatlari, saylov o'tkazish jarayonidagi nayranglar, soxtakorlik, poraxo'rlik, shuningdek, mas'uliyatli lavozimlarga nopol va badadoq kishilarning saylangani, "har yerda bo'lган saylovlar xususidagi betartibliklar va befikrliklar millatga oshno kishilarni nihoyatda g'ussa va andisha"<sup>4</sup>ga solgani, chor hukumatining qozi, ellikboshi, mingboshi saylovlar qonun-qoidalari nomuvofiqligi, ular xalqni talash, poraxo'rlik va zo'ravonlikni bilishlari, xalqning "polojenie"lardan norozi ekan, xalqning taqdirlaganbardor, qabih, johil, nafsining quli bo'lган odamlarga topshirilishi jiddiy tanqid qilingan "Polojeniyada 223-bobida zikr qilingandurki, e'tibori bor, yetti kundan ziyoda hibs bo'l'magan, o'ttuz so'mdan ziyoda ishtrat to'laman, yoshi yigirma beshdan past emas odam (qozi) bo'lar ekan. Olim yo omi, ahmoq yo dono kishi, yo shariat biladurgan va yoki nizom biladurgan demagan... savodi bo'lmasa ham, milliy sharorati bo'lsa ham, milliy polojeniyada ilmi kifoya qiladurg'on ham deb yozilmagandur... Ko'rasiz, kimlarni(ng) qo'llariga bu katta shariat hukmini topshiradurlar. Fikr-andisha qiladurgan kishi yo'q. Andisha qiladurgan odamni odam ham hisob qilmaydilar... Polojeniya bobig'a muvofiqellikboshi degan kimgaki shat ko'b xushsa ani yozar ekan. Na qilsunlar, bu xil qilsalar polojeniyaga muvofiq. Polojeniyada shariat biladurgan mulladan degan emas ekan. Ularga kim va nima bo'lishi ham darkor emas ekan".

Gazeta idorasi maqolaga e'tiroz bildirib, quyidagi javobni ilova qilgan: "Polojeniyada xalq orasida obro' va e'tibori bor odam bo'lsun, degan, albatta. Mingboshilikka mingboshi bo'l moqlikka munosib obro'si bo'lib va qozilikka qozi bo'lmoqg'a layoqat va munosiblik obro' bo'lmoq lozimdir Polojeniyani mulohaza qilmoq kerak. (Idora)"<sup>5</sup>.

<sup>2</sup>Ibrat. Eski maktablar xususida // Turkiston viloyatining gazeti,1907 yil. № 72/ Ibrat.Tanlangan asarlar.155-bet.

<sup>3</sup> Is'hoqxon To'ra Ibrat. Redaksiyaga xat // Turkiston viloyatining gazeti. 1908 yil 13 yanvar. № 4

<sup>4</sup> Is'hoqxon To'ra Ibrat. Po povodu viborov dolinostnis tuzemsev Namangane Turkiston viloyatining gazeti. 1910 yil 21 mart/Ishoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. 151-bet.

<sup>5</sup> Is'hoqxon To'ra Ibrat. Po povodu viborov dolinostnis tuzemsev Namangane Turkiston viloyatining gazeti. 1910 yil 21 mart/Ishoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. 152-bet.

<sup>6</sup> Is'hoqxon To'ra Ibrat. Po povodu viborov dolinostnis tuzemsev Namangane Turkiston viloyatining gazeti. 1910 yil 21 mart/Ishoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. 152-bet.

Is'hoqxon To'ra 1912 yilda "Otkritiye Kokand-Naman- ganskov jeleznoy dorogi"<sup>7</sup> nomli maqola yozib, temir yo'l ochilishini Namangan ijtimoiy hayotidagi unutilmas voqealiga sifatida tasvirlagan. Jumladan, Xo'jandda poyezdni obdon yasatib, lentalar kesilgani, haqlariga duo qilib, qarsaklar bilan kuzatib qolningani, poyezd Namanganga yetib kelganda umrida poyezdni ko'r'magan odamlarning hayratlari, poyezdni ko'rish uchun 30000 ga yaqin odam yig'ilgani, politsiya xalqni mashaqqat bilan tarqatgani, vokzal yaqinida ziyofat uyuştirilgani, musiqa jo'r bo'lgani, mushakbozlik, rasmchilar tasvirni olib turishgani va boshqa holatlar haqida sabar berilgan bo'lib, bayramona ruhiyatli xalqrning yangi texnologiyaga ijobiy munosabati teran ifodalangan: "Ushbu 7 iyulda Namangan otash aroba yo'li bitib, oni ochilganligig'a shukrona bayrami bo'lubdur... o'shal asnoda fotograflar va ham alohida chaqirilgan kinimotograf o'shal yerda hozir bo'lub, tasvirlarini olib turibdur. Ul poyez Chust istansiyasiga rasmi yurishda yurub borib, andin keyin Sirdaryog'a ko'p xarajatlar bilan bino qilgan yog'och ko'frikdin o'tub, Namangang'a kelgandin keyin istansag'a nihoyatda ko'p sardiyalar yig'ilib, atrofdin, qishloqlardin umrida otash arobani ko'r'magan odamlar kelib, ul otash arobani birinchi marotaba ko'rub hayron qolib, poyez kelayotgan vaqtida oq sallalik odamlar adadi nihoyatda ko'b-25000-30000ga yetibdur<sup>8</sup>.

"Namanganda yangi madrasa"<sup>9</sup> nomli maqolada XX asr boshlarida Namanganda ilm-fan va maorif masalalari tahlil etilgan. 1913 yilda Namangan shahrining markazida Qирғизбояв Mashrabboy o'g'lining mablag'i hisobiga "Mulla Qирғиз madrasasi" buniyod etilgan. Maqolada madrasaning tuzilishi, joylashishi, sarflangan mablag', vaqf mulklari, hujralar haqida aniq ma'lumotlar keltirilgan. Bundan taraqqiyat parvar mulkdor ulamolar nafaqat maktablar ochish, kitob chop etish, balki o'z hisobidan masjid, madrasa qurish, mablag' bilan ta'minlashda ham ilg'or bo'lishganini ko'rish mumkin.

"Millatni kim isloh etar?" nomli maqolada Is'hoqxon To'ra musulmonlar orasida xilof ishlar ko'paygani, xalqning axloq- odobi kundan kunga o'zgarib ketayotgani, pand-nasihat kor qilmayotgani, imomlar arabiylisonda so'zlagan so'zlarini o'zla ridan boshja, omi odamlar to'liq tushunmasligi, masjidlarda xalq tili bilan tushunarli va'z qilinishi lozimligi, imomlar xalqning bilmaganini bildirishlari, shu tufayli ikki dunyo sa odatiga erishuvlari, xalq oldida hurmatlari zivoda bo'lishi, va'z nasihatlar ommaga yetib borishi millatning ma'naviy bemorligiga davo bo'lishi, Samarqanddagi imomlardan birining masjidlarda xalq tili bilan va'z qilayotgani, bu ommaga ijobiy ta'sir etib, kishilar o'rtasida xilof ishlarga barham berilayotgani, bunday ulamolar ko'payishi millat islohi uchun zarurligini ta'kidlagan: "ulamo g'ayrat etganda millat, albatta, isloh topur"<sup>10</sup>.

Is'hoqxon To'ra "Pismo iz Tyurvakurgana" maqolasida millatni jabolatga mudrayotgan illatlarni ro'y-rost tanqid qilib, buning sababi behisob, befikr va madaniyatsizlik, beparvolik, erinchoqlik ekani, zamonga muvofiq ilm olish o'miga bid'at, maishat, lash-lushlarga berilish, diniy bilimlarni o'rganish o'rniiga mozorlarga sig'inish,

<sup>7</sup> Is'hoqxon To'ra Ibrat.. Otkritiye Kokand-Namanganskoy jelezney dorogi // Turkiston viloyatining gazeti. №54. 1912 yil 15 iyul Tanlangan asarlar. 149-150-betlar

<sup>8</sup> Is'hoqxon To'ra Ibrat.. Otkritiye Kokand-Namanganskoy jelezney dorogi // Turkiston viloyatining gazeti. №54. 1912 yil 15 iyul Tanlangan asarlar. 149-150-betlar

<sup>9</sup> Is'hoqxon To'ra Ibrat. Novaya madrasa goroda Namangan // Turkiston viloyatining gazeti, 1913 yil 28 aprel

<sup>10</sup> Is'hoqxon Ibrat Millatni kim isloh etar? // Oyna jurnali, 1914 12-son 274-275-betlar/Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. 157-bet.

topgan-tutganini to'y-hashamga sarflash, pand-nasihat o'rmiga gapvozlik qilish, shuningdek, ayollarning xurofot ichida qolib, beandisha, betartib, johil ekanliklari, farzandiga ozroq pul bergen otani o'ldirishdan toymasligidan "O'zidan chiqqan baloga, qayg'a borsun davog'a" deb norozilik bildirib, "zamona turmaydur, asr va vaqt tor ketar, ilmsiz, axloqsiz qolur, harakat darkor, ijтиҳод darkor Hayotni sizga bog'lab bergani yo'q. Mamot hozirdur, voqif bo'ling, amal qiling, ish qiling, yo'l toping, ilm o'qung" deb sitob qilgan. Zero, Is'hoqxon Ibratning bu sitobi bugungi kun yoshlari uchun ham taalluqlidir.

1914-yilda Is'hoqxon To'ra Ibrat Toshkentga, Xadradagi ikki sinfli rus-tuzem maktabida rus tilidan o'tkaziladigan bitiruv imtihonida qatnashish uchun taklif qilingan. Is'hoqxon To'ra poyezdda ketayotib, mamlakatdagi yangilanish va o'zgarishlar haqida mulohaza yuritib, ilm-ma'rifikat borasida ham amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarni rejalashtiradi: "... bizni xalq ham shoyad bu ilmlardin bahra olsalar edi deb. Toshkand borguncha fikrimda edi. Toshkand borganda, kunduzlar bog' sayohatlarida, kechalar tomoshaxonalarda hikoyat kitoblaridin o'tkan voqealarning hikoyasini suratda o'zini kilib, sinimotugraf tomoshasida bo'ladurgon tomoshalarni mushohada qilib ko'rub, bormoq-kelmoqda o'turub bormoq uchun qilingan ko'nka elektriyalarni va kechalarda yoqmaklik uchun yog'siz va o'tsiz yonadurgon elektriya chirog'larni ko'ruba, ahlimiz bundan man- faat olganlaridin boshqa Ovro'po ilmiga ham o'rgansalar edi"<sup>11</sup>. Imtihondan olgan taassurotlari uning "Toshkent safarindagi ma'lumotlarim nomli maqola yozilishiga sabab bo'lgan. Is'hoqxon To'ra "Toshkentni Xadra mavze'iда bo'ladurg'on dvuklassnoy shko'lida imtihon vaqt ekan. Imtihonda bizni musulmoniya bolalari ham yaxshi, durust rusiya zabonini raso va yaxshi so'zlamoqqa qodir bo'lub, yaxshi imtihon berganlari shodlanturdi... yana bir necha yillarda bu yozilmuss ilm va kasbi kamolotlaridin ham hissalarini olmoqqa iste'dodlari bo'lg'udek ekan"<sup>12</sup> deb, mamlakatdagi ijtimoiy-madaniy sohalardagi rivoj lanish, Toshkent shahridagi madaniy taraqqiyot hamda ma- orifdagi o'zgarishlarni ijobiy baholagan. Is'hoqxon To'ra, o'zining pedagogik faoliyatida, yoshlarni doimiy ravishda yangi bilimlar va ko'nikmalar bilan ta'minlashni maqsad qilgan. U maktabda o'qish va yozishni o'rgatish jarayonida kattalar hamda bolalar orasidagi tafovutni kamaytirishga harakat qilgan. Afsuski, ularning faoliyati faqat muddatli bo'lib, yangi maktablar mutaassisiblar va mutlaq hokimiyatning qarshiligiga duch kelgan. Bundan tashqari, Is'hoqxon To'ra yangi pedagogik usullarning rivojlanishiga yordam bergen bo'lsa-da, uni amalga oshirishdagi qiyinchiliklarni ham juda yaxshi anglagan. U maktablarni faqat ma'naviy va ilmiy tomonidan rivojlantirishni emas, balki zamonaviy me'yorlar asosida qayta qurishni ham istagan. Yangi maktabda, o'qituvchilar bolalarni kaltaklash, jismoniy jazolar bilan tarbiyalashga qarshi chiqdi va o'qitishning yanada insonparvar shakllarini qo'llashni taklif qildi. Ibratning ta'l'im sohasidagi yuksalishi faqat akademik sohada emas, balki milliy madaniyatni yuksaltirishga ham aloqador edi.

U o'z maktablarida faqat ilm-fan o'rgatibgina qolmasdan, o'quvchilarga Vatanparvarlik va madaniyatga hurmatni ham asirlagan. U xalqni jaholatdan xalos qilish, ilmga intilish va barcha ijtimoiy sohalarda yangiliklarni tatbiq etishga undagan.

<sup>11</sup> Is'hoqxon Ibrat. Toshkent safarindagi ma'lumotlarini // Turkiston viloyatining gaasti. Ne 48. 1914 yil 12 aprel/Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. 153-bet

<sup>12</sup> Is'hoqxon Ibrat. Toshkent safarindagi ma'lumotlarini // Turkiston viloyatining gaasti. Ne 48. 1914 yil 12 aprel/Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. 153-bet.

Ibratning ta'limga qo'shgan hissasi, asosan, maktablarni yangilash va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. U faqat o'quvchilarga ilm beribgina qolmagan, balki, ular uchun tarbiya, axloq va madaniyat asoslарини ham taqdim etган. Shuningdek, Is'hoqxon To'ra o'quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan ta'minlamay, ularning jismoniy tarbiyasiga ham katta ahamiyat bergan. Is'hoqxon To'ra Ibratning ta'lim sohasidagi faoliyati nafaqat o'sha davrning o'zida, balki bugungi kunda ham ta'lim islohotlari, kadrlar tayyorlash va jamiyatni yuksaltirish borasida o'rnak sifatida ko'rildi. Uning faoliyati, asosan, ilm-fan va ma'naviyatni uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lib, maktabni milliy kadrlar tayyorlash markazi deb bilgan.

